



“Involta” Ilmiy Jurnal

Vebsayt: <https://involta.uz/>

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARNING HAMKORLIGI

Madrimov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

Urganch davlat universiteti, Tarix fakulteti talabasi
ixtiyor_madrimov94@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, huquq, davlat siyosati, bandlik, besh tashabbus, dastur, “Yoshlar yetakchisi” “Yosh kitobxon”, tadbirlar.

THE STATE AND IN THE IMPLEMENTATION OF YOUTH POLICY COOPERATION BETWEEN COMMUNITY ORGANIZATIONS

Madrimov Ikhtiyor Bakhtiyor ugli

Urgench State University, Faculty of History
ixtiyor_madrimov94@mail.ru

ANNOTATION

This article describes the cooperation of state and public organizations in the

implementation of state youth policy in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Youth, law, public policy, employment, five initiatives, program, "Youth Leader", "Young Reader", events.

ГОСУДАРСТВО И В РЕАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ ОБЩЕСТВЕННЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

Мадримов Ихтиёр Бахтиёр угли

Ургенчский государственный университет, исторический факультет

ixtiyor_madrimov94@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрено сотрудничество государственных и общественных организаций в реализации государственной молодежной политики в Республике Узбекистан.

Ключевое слова: Молодежь, право, государственная политика, занятость, пять инициатив, программа, «Молодежный лидер», «Юный читатель», мероприятия.

KIRISH

Dunyo miqyosida jamiyat barqarorligini harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi yoshlarning oʻrni, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi masalalari, turli mamlakatlarda yoshlar boʻyicha olib borilayotgan umumiy siyosat bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Zamonaviy integratsion jarayonlar kechayotgan hozirgi davrda yoshlar muammolariga oid davlat siyosatini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekistonda yoshlar mamlakat aholisining uchdan bir qismini tashkil etadi va jamiyatimizni asosiy harakatlantiruvchi «lokomotivi» hisoblanadi. Shu bois ham soʻnggi yillarda respublikada yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish yuzasidan muhim amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.¹

¹ Mirziyoyev.Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // Xalq soʻzi. 2018-yil 29-dekabr.

O‘zbekistonda istiqlol taraqqiyotning ilk kunlaridanoq qonun ustuvor bo‘lgan demokratik davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan davrda, hayotning barcha sohalari qatori, yoshlarga oid davlat siyosatiga doir bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy ishimizda 2017-2021-yillarda ta’lim-tarbiya va yoshlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar davriy chegara sifatida belgilab olindi. Shundan kelib chiqqan holda maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolani yoritishda tizimli tahlil, faktlarning ichki aloqadorligi, o‘rganilayotgan masalaning induktiv tahlili, buning natijasida kelib chiqqan natijalarni umumlashtirish, qiyosiylik kabi metodlardan foydalanildi.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Shu bilan birga joylarda, avvalambor, respublikamizning chekka hududlarida istiqomat qilayotgan ko‘p sonli yoshlarning, qolaversa, jismonan imkoniyati cheklangan yoshlarning ham o‘z iqtidor va iste’dodini ro‘yobga chiqarishlari uchun, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish maqsadida, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish borasida muayyan faoliyat amalga oshirilib kelinmoqda.²

² “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi 2019 yil UO‘K: 005

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko‘tarish hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan vazifalarning to‘laqonli ijrosini tashkil etish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari tomonidan ushbu yo‘nalishda samarali hamkorlikni amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hozirgi davr talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida e‘tibor qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta‘minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi, ya’ni bevosita yoshlar masalalariga mas’ul davlat va jamoat tashkilotlardan vakillar tayinlanib, bu borada keng islohotlar qilindi.

Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, ta’lim muassasalarida yoshlar masalalariga mas’ul lavozimlari, shuningdek, 2022-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori bilan Respublika bo‘yicha mahallalarga 9309 ta “Yoshlar yetakchisi” shtat birliklari³ joriy qilinishi va eng muhimi, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli qonunlarda nazarda tutilgan yoshlarimiz huquq va manfaatlarini o‘zaro hamkorlik asosida himoya qilinishi yaqqol so‘zimizning isbotidir.

NATIJALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilishi manzarasini siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda shiddat bilan bo‘layotgan o‘zgarishlarda ko‘rishimiz mumkin. Yoshlar siyosati ijrosini amalga oshirish maqsadida respublikada nafaqat faol yoshlar, balki uyushmagan, nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy ehtiyojmand, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi mavjud, profilaktik hisobda turuvchi, shuningdek, jazoni ijro etish

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori.

muassasidan qaytgan yoshlarni ham qamrab olish ustuvor vazifa etib belgilangan. Keltirib o‘tilgan yoshlarning ayrim qatlamlarini qamrab olish mexanizmlari ishlab chiqilganligi, mas’ul tashkilotlarning faqatgina o‘zaro hamkorlikdagina bu boradagi faoliyatlarini ortiqcha qiyinchiliklarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Avvalo “Oila–mahalla–ta’lim muassasasi” konseptsiyasi asosida o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini mustahkamlash orqali yoshlar orasida uchrayotgan muammolar yechimini topish mumkin. Bunda yosh avlodni tarbiyalashda eng avvalo, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni oiladan boshlab yaratish darkor. Masalaning ikkinchi tarafi esa shuki, davlatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali to‘liq qamrab olishga urinayotgan jarayonda ularning tarbiyasi hamda kelajagiga ayrim ota-onalar beparvoligi achinarli holat. Shunda ham davlatimiz tomonidan yoshlarni keng qamrab olish choralari takomillashtirish maqsadida jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali keng jamoatchilikning vazifalarini tegishli qonun hujjatlarda belgilab berdi. Jumladan, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida ko‘rsatilganidek, davlat va nodavlat tashkilotlari aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish, uning bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish, har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, sog‘lom oilani shakllantirish va yana bir qator sohalarda hamkorlikni amalga oshirishlari, ularning faol ishtiroklari o‘z navbatida fuqarolik jamiyati muhim mezonlaridan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan o‘z navbatida kelayotgan kelajak avlodni qamrab olish tizimining mukammal shakllantirilishi yoshlarga oid davlat siyosatini

joylarda samarali tashkil etishning bir usul va vositasidir. Xususan, yoshlar bilan bog'liq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni oldini olish uchun, dastavval, ularning ma'naviy-ma'rifiy bilim salohiyati hamda kitobxonlik madaniyatini, shuningdek, huquqiy savodxonligini yanada oshirishga qaratilgan "Men sevib o'qigan kitob", "Eng yaxshi kitobxon" "Yosh kitobxon" va "Yosh huquqshunos" kabi respublika tanlovlarining tizimli tashkil etilayotgani; yoshlarni ish bilan band qilish maqsadida yoshlar markaziga ma'lum muddat kasb-hunarni o'rganishga birlashtirilib, so'ng tegishli soha tashkilotlarga yo'naltirilayotgani; shuningdek, mahallalarda moddiy yordamga muxtoj oilalarni kam ta'minlanganlar ro'yxatidan chiqarib, faollikka chorlash, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratilayotgani, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash maqsadida tikuv mashinalarining sovg'a qilinishi, "Yoshlar - kelajagimiz", "Har bir oila - tadbirkor" Davlat dasturlari ishlab chiqilganligi bejizga emas.

Shaxs, oila va mahallada dastlabki ijtimoiy-ma'rifiy madaniyatining shakllanishini inobatga olsak, mahalla institutining yoshlar masalalariga oila institutidan keyingi mas'ul tashkilotlardan biri ekanligini e'tirof etishimiz mumkin. Mahalla tizimida yoshlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash maqsadida 2022-yil 19-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarori bilan yoshlar yetakchisi lavozimlari joriy qilinishi bu sohaga bo'lgan yuksak e'tibordir. Keltirib o'tilgan mas'ullar tegishli soha vakillari bilan hamkorlikda davlat dasturlari ijrosi doirasida yoshlarimiz orasida tadbirkorlik, bog'dorchilik, dehqonchilik, kasanachilik va hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirish orqali yoshlar bilan bog'liq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga harakat qilmoqdalar.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini

ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni, xususan, yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb qilish, shuning bilan birga, to'liq jihozlangan madaniy markazlarni barpo etishning manzilli ro'yxatini shakllantirish; Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirish orqali, aholi va yoshlar o'rtasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazishni ko'paytirish; Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga shart-sharoitlar yaratib, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish bilan birga dasturiy mahsulotlar yaratish; Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish; Hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish maqsadida amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilishi, yoshlarga bo'lgan navbatdagi muhim e'tibordan, deb qarashimiz mumkin⁴.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, davlatimiz rahbari tomonidan barkamol avlod tarbiyasi mamlakat taqdiriga dahldor eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ularning kuch va salohiyatini yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi sari safarbar etishda o'z aksini topmoqda.

Bugungi kunda yoshlar sohasidagi davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorlikdagi amalga oshirayotgan chora-tadbirlari yetarlicha natija berayotganini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Biroq yoshlar orasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik ko'rsatgichlari hamda ajrimlar sonining oshishi hamkorlikning yangi sahifalarini ochishni taqazo etmoqda. Jumladan, 2021-yilda yoshlar o'rtasida 1 505 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Bu ko'rsatgich 2020-yilga nisbatan 407 taga ko'p.⁵ Bu esa yoshlar sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada mahallalardagi yoshlar yetakchilarining yelkasiga katta mas'uliyatni yuklaydi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kunidagi yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini o'z ichiga olgan 5 ta tashabbus bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish bayoni.

⁵ www.xorazmstat.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2018 yil 29 dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori.
3. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi 2019 yil UO‘K: 005
4. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so‘zi. – 2016. – 15 sentyabr. - №182 (6617).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kunidagi yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini o‘z ichiga olgan 5 ta tashabbus bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni.